

CH₃

LOREM IPSUM

LOREM IPSUM

ISSN: 2181-3310

MUTAFAKKIR

Scientific Journal / Научный журнал / Илмий журнал

№ 33, Mart-aprel (2025)

33-son

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

Bosh Muharrir:
SHOHINUR
MIRZAYEV

Tahrir hay'ati

Dilmurod Muhammadiyev
Baxtinur Xudanov
Baxrom Urunov
Nasrullayevich
Shuhrat Ziyadullayev
Muxtor Xudoyqulov
Ulug'bek Vohidov
Murod Abulkasimov
To'rayev Laziz Abdivali
O'g'li

ALISHER NAVOIY
NOMIDAGI O'ZBEKISTON
MILLIY KUTUBXONASI

Kitob va turkum
nashrlarga ISBN va ISSN
raqamlarni biriktirish
to'g'risida

MA'LUMOTNOMA

Turkum nashrlarning
chiqish ma'lumotlarini GOST
7.4-95 «Nashrlar. Chiqish
ma'lumotlari» hamda GOST
7.56-2002 «Xalqaro standart
turkum raqami» davlatlararo
standartlar talablari asosida
bo'lishini to'liq ta'minlash
maqsadida, Alisher Navoiy
nomidagi O'zbekiston Milliy
kutubxonasi va «Mutafakkir»
1ta 2022 yil 11-apreldagi
№ ISSN-C-35583 sonli
hisob-kitob shartnoma va
2022 yil 19-aprel yildagi №
ISSN-I-35583 schet-fakturaga
asosan turkum nashrlarini
ISSN bilan belgilash uchun
quyidagi raqamni taqdim
etadi:

Turkum nashrning nomi:
Мутафаккир
ISSN raqam: 2181-3310
Turkum nashrlarning turi:
электрон нашр

Ushbu jurnal O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya komissiyasining ilovasida mavjud bo'lgan xalqaro indeksatsiya **index copernicus** bazasiga kiritilgan. OAK ilmiy nashrlarda chop etilgan maqola sifatida qabul qilinadi.

Asos: O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxati

¹ Мақола chop etilgan pайtda халқаро миқёсда фаолият кўрсатадиган қуйидаги йирик нашриётлар ёки маълумотлар базаси асосида «импакт-фактор»га эга бўлган илмий журналларда нашр этилган мақолалар мазкур Рўйхат таркибига киритилган илмий журналларда chop etilgan илмий мақолалар сифатида қабул қилинади: (1) Web of Science (Web of Knowledge), (2) Journal Impact Factor, (3) Scopus, (4) Journal Citation Reports, (5) Global Impact Factor, (6) International Impact Factor Services, (7) Agris, (8) Chemical Abstracts CAS, (9) GeoRef, (10) PubMed, (11) Springer, (12) Index Copernicus, (13) Bielefeld Academic Search Engine, (14) ResearchBib, (15) Directory of Research Journals Indexing, (16) Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor, (17) Open Academic Journals Index, (18) Ulrich's Periodicals Directory, (19) Scientific Indexing Services, (20) General Impact Factor, (21) InfoBase Index, (22) International Society for Research Activity, (23) Scientific Journal Impact Factor, (24) Scientific Research Publishing Inc, (25) Directory of Open Access Journals, (26) Academic Journals Database, (27) Academic One File, (28) Advanced Science Index, (29) Anthropological Index Online, (30) Anthropological Literature, (31) Anthropology Plus, (32) Asian Education Index, (33) Bibliography of Asian Studies, (34) Compendex, (35) CrossRef, (36) HINARI, (37) Hindawi, (38) Libraries Resource Directory, (39) Impact Factor Search, (40) ResearchGate, (41) SCImago, (42) Scisearch, (43. з/х) Universal Impact Factor.

Шунингдек, жаҳоннинг икки юзта энг яхши олий таълим муассасаси рўйхатидаги олий таълим муассасалари томонидан chop etilgan илмий ишлар ва мақолалар тўпламида нашр этилган илмий мақола (материал)лар мазкур рўйхатга киритилган илмий нашрларда chop etilgan мақолалар сифатида қабул қилинади.

**BOLALAR ADABIYOTIDA IJODKORLARNING PORTRET YARATISH-
DAGI MAHORATI**

Mamnazarova Dilobar Akbarovna,

Alfraganus universiteti o'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi II bosqich magistranti

e-mail: mamanazarovadilobar@gmail.com

ORCID:

telefon: +998971551709

Annotatsiya. Mazkur maqolada bolalar adabiyotida yozuvchi va shoirlarning badiiy portret yaratish mahorati, obrazli tafakkur va psixologik tahlil asosida xarakter yaratishdagi o'ziga xos uslublari tahlil qilinadi. Mualliflar tomonidan bolalar ruhiyatiga mos, estetik tarbiya vositasi sifatida xizmat qiluvchi obrazlarning yaratilishi ilmiy-nazariy jihatdan asoslanadi.

Аннотация. В данной статье анализируется мастерство писателей и поэтов в создании художественного портрета в детской литературе, их оригинальные стили в формировании характеров на основе образного мышления и психологического анализа. Образы, созданные авторами в соответствии с детской психологией и служащие средством эстетического воспитания, обоснованы с научно-теоретической точки зрения.

Annotation. This article analyzes the skill of writers and poets in creating artistic portraits in children's literature, as well as their unique styles in character development based on figurative thinking and psychological analysis. The creation of characters that align with children's psychology and serve as a means of aesthetic education is scientifically and theoretically substantiated.

Kalit so'zlar: bolalar adabiyoti, portret, obraz, xarakter, badiiy mahorat, psixologizm.

Ключевые слова: детская литература, портрет, образ, характер, художественное мастерство, психологизм.

Keywords: children's literature, portrait, image, character, artistic skill, psychology.

KIRISH

Bolalar adabiyoti — bu nafaqat yosh avlodni estetik tarbiya qilish, balki ularning dunyoqarashini kengaytirish, axloqiy-ruhiy kamolotiga xizmat qiladigan adabiy qatlamdir. Bu adabiyotda qahramonlar portretini yaratish san'ati — muallifning badiiy mahoratini ko'rsatuvchi asosiy omillardan biridir. Ayniqsa, yosh o'quvchining tasavvurini shakllantirishda aniq, ta'sirli va esda qolarli obrazlar zarur bo'ladi.

Badiiy adabiyotda personajning tashqi qiyofasini tasvirlash – portret yaratish – obrazning badiiy shakllanishida muhim vosita hisoblanadi. Portret xarakteri asarning janriga, muallifning ijodiy metodiga hamda uning individual uslubiga bevosita bog'liq bo'ladi. Odatda, portret orqali yozuvchi personaj xarakteridagi eng muhim jihatlarni ochib berishga harakat qiladi. Masalan, Xudoyberdi To'xtaboyevning "Sariq devni minib" asaridagi Xoshimjonni eslaylik: "Mening g'alati bir odatim bor. Birovga aytmayman, deb so'z bersangiz sizga ham aytib berishim mumkin... Agar bitta-yarimta odamni gapimga ko'ndirolmasam, darrov uni maqtashga tushib ketaman. Maqtayverib, eng qaysar odamni ham bir zum o'tar-o'tmas yog'dek eritib yuboraman. Shu paytda, o'ziga sezdirmasdan, Zokirvoyni ham maqtab yubordim-ku. Botirlarning eng pahlavoni, pahlavonlarning eng botiri sen, dedim. Bora-bora o'zini bu gapga ishontirdim ham."¹

Bu tasvir orqali yozuvchi Xoshimjonning juda quv va ayyor, gapga usta, uddaburon bola ekanligiga yengil yumor bilan urg'u berib ketadi.

Portret san'ati adabiyotda qadimdan mavjud bo'lib, u davrlar davomida o'zgarib, takomillashib borgan. Xalq og'zaki ijodida inson individuallashtirilgan shaxs sifatida emas, balki umumiy obraz shaklida tasvirlanganligi sababli, bu davrdagi portretlar ham ko'proq mavhum, ramziy va umumlashtirilgan xarakterga ega bo'lgan. Jumladan, folklorda portretlar mifologik, fantastik yoki an'anaviy tarzda yaratiladi. Natijada ular aniq ijtimoiy, tarixiy, milliy va individual belgilar bilan boyitilmagan bo'ladi. Masalan, "Alpomish" dostonida devlar portreti mubolag'ali usulda ifodalangan: "To'qson qarich edi uning hassasi, Sarhovuzdan katta edi kosasi" kabi tavsiflar bunga misoldir. Yoki "Ravshan" dostonidagi ko'shkda o'tirgan Zulxumor tasvirini misol qilish mumkin.

Qadimgi G'arb va Sharq adabiyotida ham portretlar ko'pincha mavhum va an'anaviy tarzda yaratilgan. Ayniqsa, Sharq g'azallarida yorning tashqi qiyofasi oy, quyosh,

¹ To'xtaboyev, Xudoyberdi Sariq devni minib: to'plam. – T.: «Yangi asr avlodi», 2013. – 118-bet

yulduz, tun va kun kabi tabiat hodisalari orqali tasvirlanadi.

TAHLIL VA TADQIQOT

Realistik adabiyotda esa portret tasviri yanada aniqlik kasb etadi. Realist yozuvchilar personaj tashqi qiyofasini hayotiylik bilan tasvirlashga intilib, portret orqali davr ruhini, ijtimoiy hayotni va odamlar turmush tarzidagi o'zgarishlarni aks ettiradilar. Bunday yondashuv Abdulla Qodiriy va Oybek ijodida yorqin ko'rinadi. Masalan, Oybekning "Bola Alisher" qissasi quyidagi tasvir bilan boshlanadi :

"Kaftiga quyosh qo'ndirilganday charaqlagan, keng chorxari mehmonxonada yangi yavmud gilam ustida tig'iz davra qurgan qo'noqlar, yaqin do'stlar samimiy suxanvarlik ila suhbat qilurlar. Katta kashmiriy shol dasturxon uzra pista-bodom, mag'iz, asal, xilma-xil holvalar to'kilgan. Mehmonlar oshab ichish ila turli qiziq voqealardan gaplashurlar; majlisda xush suhbat bir dam uzilmas edi. G'iyosiddin Kichkina — kamtar, muloyim fe'lli, ko'zlari aqlli, kalta soqoli o'ziga yarashgan, jussasi kichik kishi. Ko'pchilik uni G'iyosiddiy Kichkina der, ammo yaqin do'stlari ko'pincha Kichik bahodir der edilar."² Majlis bo'layotgan mehmonxona, dasturxon va suhbat tasviri davr ruhini, mavjud ijtimoiy hayot tasvirini mohir musavvir sigari o'quvchi tasavvurida gavdalantiradi. Alisherning otasiga ta'rif berarkan muallif obrazni ham fe'l — atvori hamda tashqi qiyofasini qisqa va aniq ifoda etgan. Shuningdek, "...keng chorxari mehmonxonada yangi yavmud gilam..." va "...Ko'pchilik uni G'iyosiddiy Kichkina der, ammo yaqin do'stlari ko'pincha Kichik bahodir der edilar" jumalari qahramonning jamiyatda tutgan o'rni va mavqeyi haqida xabar beradi. Nufuzli majlisda o'tirgan G'iyosiddin Kichkinani ko'pchilik yaxshi tanishidan obro'li odam ekanini faxmlash mumkin bo'ladi.

XIX asrda portretning yangi turi — psixologik (ichki) portret shakllandi. Bu turdagi portretlar orqali yozuvchilar personajning nafaqat tashqi, balki ichki olamini — xarakteri, ruhiy kechinmalari, ichki ziddiyatlarini yoritishga e'tibor qaratadilar. Abdulla Qahhor va Odil Yoqubov kabi yozuvchilarning asarlarida psixologik portretning badiiy namunalarini uchratish mumkin. A. Qahhorning "Oq aroqning qora ishi" hikoyasidagi qizaloqning kechinmalariga diqqat qilaylik: "Kimsan muyulishda gastronomga burildi, magazinga kirib Lolaning qo'lini qo'yib yubordi-yu, rang-barang shishalar terib qo'yilgan tomonga bordi. Lola magazinining o'rtasida turib qoldi; ko'zlari javdirab,

2 <https://www.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/oybek-1905-196i8/oybek-bola-alisher-qissa>

dadasiga bir shisha aroq uzatgan «yomon bir opa»ga, xaridorlarga qaradi. Lekin uni hech kim payqamadi.

Magazindan chiqilgandan keyin Lola gapirmay qo'ydi. Endi uning xayoli boshqa narsa bilan band edi: dadasi shimining cho'ntagida do'ppayib turgan aroqni qachon va qaerda ichadi-yu, yana «yomon dada» bo'lib nimalar qiladi".³ Bunda esini taniganidan beri ichkilikka berilgan ota va to'rt yildir bunga chidab kelayotgan onasining ko'z yoshlarini ko'rib katta bolayotgan qizchaning kechinmalarini ko'rish mumkin. Muallif bu tasvir orqali bolalikning tizginsiz hayolot olamida uchish o'rniga dadasining "yomon dada"ga aylanib qolishidan juda qo'rqadigan, kichik jussasida katta dardni ko'tarib yurgan qizaloqning ruhuy holatini ustalik bilan ochib bergan. Ushbu tasvir orqali kitobxon e'tiborsiz qoldirilgan Lolaning dadasiga bolgan nafratini emas mehrini payqaydi, qo'rquv va umid orasida turgan chorasiz qizaloqni ko'radi

Adabiy portret — adabiyotda atoqli shaxslarning hayoti va ijodiy faoliyatini yoritishga qaratilgan ocherk janridagi asar bo'lib, u biografik va badiiy tasvir elementlarini birlashtiradi. Bu turdagi portretlar ko'pincha mashhur yozuvchi, rassom, olim yoki jamoat arbobi shaxsiyatining ijtimoiy, ma'naviy va estetik jihatlarini ochib berishga xizmat qiladi. Adabiy portret boshqa badiiy janrlardan farqli o'laroq, real shaxs hayotiga asoslanadi. Muallif bu shaxsning hayoti, ijodiy yo'li, zamondoshlari bilan munosabati, asarlaridagi g'oyaviy yo'nalishlar va shaxsiy fazilatlarini tahlil asosida yoritadi. Adabiy portretida faktlar muhim o'rin tutadi, biroq ular san'atkorona uslubda, badiiy tilda ifodalanadi. Bu esa portretga jonlilik, obrazlilik baxsh etadi. Ushbu janrda yozuvchi portretini yaratish jarayonida nafaqat tashqi voqealarni, balki ichki dunyosini, ruhiy kechinmalarini ham yoritishga harakat qiladi. Shuning uchun adabiy portret ko'pincha psixologik tahlil usullari bilan boyitiladi. O'zbek adabiyotshunosligida Ne'mat Abdulloyev, Abdumajid Madraimov kabi adiblarning adabiy portretlari mashhur bo'lib, ular o'z davrining yetuk ijodkorlari haqida chuqur tahlil asosida yozilgan.

Xulosa qilib aytganda, adabiy portret – bu shunchaki tarjimai hol emas, balki shaxsiyatning tarixiy, madaniy va ma'naviy kontekstdagi badiiy tahlilidir. U o'quvchiga nafaqat shaxs hayoti haqida ma'lumot beradi, balki uning ichki olamini ham tushunishga yordam beradi.

MUNOZARA VA MULOHAZA

3 <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/abdulla-qahhor-1907-1968/abdulla-qahhor-oq-arogning-qora-ishi-feleton>

Adabiyot tarixida bolalar adabiyotida badiiy portret yaratishning bir necha asosiy usullari kuzatiladi: Yozuvchi portretni turli uslublarda yaratishi mumkin. Masalan, ichki monolog, orqa plandagi voqealar, va xarakterning fikrlarini tahlil qilish orqali, personajning portreti yanada to'liq va realistik bo'ladi. Bunday usullar, asarlarni o'qiyotgan o'quvchiga personajlarni aniq va jonli tasavvur qilish imkonini beradi. Bu narrative usul sanaladi. Yuqorida Abdulla Qahhor hikoyasidan keltirilgan misolda Lola ismli qizchaning fikrlarini tahlil qilish orqali uning portreti yanada to'liq ochilgan.

Tasviriy-tashqi portret: Qahramonning kiyimi, qomati, yuz ifodasi va tuzilishi, harakatlari orqali xarakter ochiladi. Masalan, Xudoyberdi To'xtaboyevning "Sariq devni minib" asaridagi Baxtiyor obrazini olaylik — uning beg'uborligi, qiziquvchanligi ko'proq tashqi holatlar orqali ochiladi.

Ichki (psixologik tahlil): Bu yerda qahramonning fikrlari, ichki kechinmalari orqali portreti chiziladi. Shu jihatdan G'afur G'ulomning "Shum bola" qahramoni — Qoravoy — ichki ziddiyatlari bilan diqqatga sazovor.

Obrazli til va ramziy portretlar: Ba'zi hollarda portret bevosita berilmasdan, ramziy belgilar orqali ochiladi. Shu uslubni Erkin Vohidov bolalar uchun yozgan she'rlarida mahorat bilan qo'llagan.

Har qanday turdagi portret o'quvchining tafakkur imkoniyatlarini boyitish bilan bir qatorda uning axloqini ham go'zallashtiradi Portret faqatgina estetik funksiyani emas, balki tarbiyaviy vazifani ham bajaradi U yosh o'quvchida yaxshilik va yomonlikni ajratish, fazilatli insonlarga ergashish tuyg'usini uyg'otadi. Bunday portretlar bolaning ma'naviy kamoloti uchun xizmat qiladi. "Sariq devni minib" asaridagi quyidagi parchani olaylik:

"Soy bo'yida turadigan qori pochcha juda-juda ham pakana, semirib dum -dum aloq bo'lib qolgan. Uzoqdan qarasangiz, xuddi Dononing yelim qo'g'irchog'iga o'xshab ko'rinadi. Odamlar uni Danak qori deb atashadi. Uchinchi sinfda o'qiydigan Hanifaning bobosini esa Bodom qori, deb chaqirishadi. Bodom qori Danak qoridan sal novcharog'u, ammo oyoqlari juda-juda ham kalta, qollari undan kalta. Uzoqdan qarasangiz ham, yaqindan qarasangiz ham bari bir mis samovarning o'zginasi deysiz. Uchinchisini, Yong'oq qori deyishadi. O'ziyam xuddi po'sti archilm agan yong'oqdek dum-dumaloq. Buning ustiga doim boshiga savatdek salla o'rab yuradi. Bir kuni uzoqdan ko'rib qolib, ishonasizmi, bug'doyzorda qo'ziqorin unib chiqibdimi deb, yugurib borib qarasam — qori pochcham engashib o'tirgan ekan. Mana shu uchovlarini chi-

lyosinga taklif qilib keldik.”⁴ Ko‘richak bo‘lib qolgan singlisini chilyosin o‘qib davolashga kelgan bu kimsalarning salbiy bo‘yoqdorlik asosida berilgan tarifidan o‘quvchi avvalo miriqib kuladi, shu bilan birga ilmsizlik orqasidan keladigan ayanchli oqibatlarini anglab yetadi, yaxshi va yomonni farqlashga o‘rganadi.

XX asr bolalar adabiyotini rang-barang asarlar bilan boyitgan A.Qahhor, Oybek, E.Vohidov X.To‘xtaboyev, Erkin Malik, Anvar Obidjon kabi adiblar portret yaratishda o‘ziga xos betakror uslub – bolalarning qiyofa va xarakteri, tili, xatti-harakatlarini chuqur o‘rganib, jonli ifodalashi bilan ajralib turuvchi ijodkorlardir. Mana shu badiiy me‘ros ta‘sirida ulg‘aygan, undan ilhomlanib o‘zi ham ijod olamiga kirib kelgan bugungi qalam sohiblari ushbu an‘analarni davom ettirgan holda jahon tajribasiga va zamon talabiga mos ravishda bolalar adabiyotida yangiliklar qilishga harakat qilyaptilar.

So‘ngi yillardagi zamonaviy bolalar adabiyotida vizual tasvirlar, mediatekstlar (komiks, animatsion qahramonlar asosida yaratilgan hikoyalar) portret yaratish jarayoniga yangicha yondashuv olib kirmoqda. Yozuvchi va rassom hamkorligida yaratilgan bolalar kitoblarida portretning rasmiy (vizual) va matniy (badiiy) ifodasi uyg‘unlashmoqda. Zamonaviy bolalar adabiyoti yozuvchisi Dinara Mo‘minovanning izlanishlari ayni mana shu yangiliklarga asoslanadi. Xorijda yashab kelayotgan adiba ko‘proq o‘z ishiga, o‘z sohasiga kreativ, ijodiy yondashadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish bo‘yicha mutaxassis, Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD). Erta savodxonlikda kitobxonlikning o‘rniga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqot ishi yoqlagan. Bugungi kunda erta kitobxonlikka oid metodik qo‘llanmalar ishlab chiqqan va rasmlı kitob (picturbooks)ga oid ilmiy izlanishlar olib borayapti va shu mavzudagi turkum maqolalar muallifi. Janubiy Koreyada istiqomat qiladi. Xalqaro Nordik universitetida «Bolalar adabiyoti» fanidan dars beradi. Bolalar adabiyoti yozuvchisi. Kitoblari Amazon.com platofmasida va «Akademnashr» nashriyotida chiqqan. Ushbu ma‘lumotlar adibaning mutlaq yangi va muvaffaqiyatli yo‘nalishdan borayotganini bildiradi. Quvonarlisi shundaki, ijodkor o‘z kitoblariga o‘zi illyustratsiya ishlaydi. Buning uchun xorijlik ikkita rassomdan professional dars olgan. Qahramon portretini yaratishda bu juda samarali usul. Ijodkor tasavvur mahsulini o‘zi qogozga tushursa uning oquvchiga yetib borishi ham shunchalik yengil kechadi. Inson hayoti davomida oladigan bilimlarining 70 %ini 5 yoshgacha bolgan davrda olishini

4 To‘xtaboyev, Xudoyberdi Sariq devni minib: to‘plam / Xudoyberdi To‘xtaboyev. -T.: «Yangi asr avlodi», 2013. - 540 b.109-bet

hisobga olsak aynan mana shu yonalish erta yoshdagi bolajonlarimizni kitoblarning shirli olamiga oshno qilishimizga yordam beradi.

XULOSA

Bolalar adabiyotida portret yaratish — bu murakkab, ammo nihoyatda zarur badiiy jarayondir. Yozuvchi bola ruhiyatini chuqur his qilgan holda, obrazlar orqali ular uchun ideal namunalarni ko'rsatadi. Portret yaratish san'ati esa adibning tasviriy imkoniyatlarini namoyon etadi va bolalarning estetik dunyoqarashini boyitadi. Ayniqsa texnika asrida tug'ilib o'sayotgan bugungi kun bolasini kitobga oshno qilishda portret vositasining o'rni va ahamiyati nechog'li muhim ekanligi maqola davomida bir qadar ochiqlandi.

TISH FLYUOROZINING KELIB CHIQISH SABABLARI, KLINIK KO'RINISHLARI, PROFILAKTIKASI VA DAVOLASH USULLARI.

Alfraganus Universiteti Stomatologiya kafedrası assistenti Xolov D.I.

Tibbiyot fakulteti Stomatologiya yo'nalishi

1-kurs talabasi

Imomova Sh.F.

Annotatsiya.

Mazkur maqolada tish flyuorozi kasalligining kelib chiqish sabablari, klinik belgilari va oldini olish choralari tahlil qilinadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, organizmga ortiqcha ftor tushishi tish emalining minerallashuv jarayonini buzib, uning strukturaviy o'zgarishiga sabab bo'ladi. Kasallikning klinik ko'rinishlari yengil, o'rtacha va og'ir shakllarga bo'linib, har biri o'ziga xos belgilarga ega. Oldini olish choralari ichimlik suvidagi ftor miqdorini nazorat qilish, ftorli mahsulotlardan ehtiyotkorlik bilan foydalanish va tish emalini mustahkamlashga qaratilgan usullarni o'z ichiga oladi. Keltirilgan ma'lumotlar tish flyuorozi tarqalishini kamaytirish va uning oldini olish bo'yicha samarali strategiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: tish fluorozi, ftor, ichimlik suvi, remineralizatsiya, profilaktika, pigmentatsiya, remterapiya.

Annotation.

This article analyzes the causes, clinical manifestations, and prevention measures of dental fluorosis. Studies show that excessive fluoride intake disrupts the mineralization process of tooth enamel, leading to structural changes. The clinical manifestations of the disease are classified into mild, moderate, and severe forms, each with distinct characteristics. Preventive measures include monitoring fluoride levels in drinking water, cautious use of fluoride-containing products, and methods aimed at strengthening tooth enamel. The provided information contributes to the development of effective strategies for reducing the prevalence of dental fluorosis and preventing its occurrence.

Keywords: dental fluorosis, fluoride, drinking water, remineralization, prevention, pigmentation, remtherapy.

Аннотация.

В данной статье рассматриваются причины, клинические проявления и меры

профилактики флюороза зубов. Исследования показывают, что избыточное поступление фтора нарушает процесс минерализации эмали зубов, приводя к структурным изменениям. Клинические проявления заболевания подразделяются на лёгкую, среднюю и тяжёлую формы, каждая из которых имеет свои особенности. Профилактические меры включают контроль уровня фтора в питьевой воде, осторожное использование фторсодержащих продуктов и методы, направленные на укрепление зубной эмали. Представленная информация способствует разработке эффективных стратегий по снижению распространённости флюороза зубов и его предотвращению.

Ключевые слова: флюороз зубов, фтор, питьевая вода, реминерализация, профилактика, пигментация, ремтерапия.

Tishlarning flyuorozi- bu ichimlik suvining tarkibida ftor miqdorining oshganligi natijasida odam tanasining surunkali zaharlanishining birinchi ko'rinishlaridan biri sifatida paydo bo'ladigan kasallikdir. Ayrim tadqiqotchilar tishdagi fluorozning suv tarkibidagi ftorning me'yordan ko'pligidan kelib chiqadigan o'ziga xos gipoplaziya kasalligi deb fikr yuritishadi. Bu kasallik 1900 yilda Italiyalik shifokor Chiyya tomonidan birinchi marta aniqlangan. U Neapolda yashovchi aholi orasida, turli rangli tishlarni(yoki qora tishlarni) ko'rib, bunday bo'lishiga ichiladigan suv tarkibida vulqonli tashlandiqlarning aralashganligi tufayli kelib chiqqan degan xulosaga kelgan. 1916 yili Blek bunday tishlarga "dog'li emal" nomini bergan va bu nom eng ko'p tarqalgan hisoblanadi. Taxminan, 30yil mobaynida kasallikning kelib chiqish sabablari (etiologiyasi) va rivojlanishi (patogenezi) noaniqligicha qolgan. Nihoyat, 1931 yilda Smit va boshqa hammualliflar tajribalar asosida fluoroz suvdagi ftor miqdori bilan bog'liq ekanligini aniqlashgan. Keyinchalik esa, suvdagi ftor miqdori nafaqat tishlarda flyuoroz kasalligiga sabab bo'lishi, balki hayvonlar va odamlar suyaklarida ham turli patologik o'zgarishlarning keltirib chiqarishi mumkinligi aniqlandi.

R.D. Gabovich, A.N. Shadrina keltirgan ma'lumotlar bo'yicha, katta yoshdagi odamlarning organizmiga qaraganda bolalar organizmida ftor ancha katta miqdorlarda ushlanib qoladi. Tug'ilish vaqtidan toki tishlari hali chala shakllanish bosqichi davrida (3-4) yoshli bo'lgan bolalarning tishlari flyuoroz bilan zararlanadi. Tishlari yorib chiqqandan keyin flyuoroz o'chog'iga ko'chib kelgan katta yoshdagi odamlarda bu kasallik paydo bo'lmaydi. Ammo ichimlik suvida ftorning konsentratsiyasi yuqori (20mg/l va undan ham ortiq) bo'lgan joylarda katta yoshda ayniqsa og'ir jismoniy mehnat qilib, ko'p suv iste'mol qiluvchi odamlarning tishlarida ham flyuoroz kasalligi rivojlanadi deb hisoblaydilar. R.D. Gabovich, G.D. Ovruskiy (1964)lar ta'kidlashicha, organizmga tushgan ftorning 75%-i buyraklar orqali, 16-17%-i ichaklar va 8-9%-i teri bezlari orqali chiqib ketishi haqida aytib o'tishgan. Ma'lumot o'rnida, I.G. Lukomskiy va boshqa mualliflar ftorning o'rtacha, mo'tadil miqdorlari odam organizmida muhim biologik ahamiyatga ega ekanligini, shu jumladan tishlarning karies kasalligiga chid-

amligini oshirish uchun zarur ekanligini ta'kidlagan.

Ushbu kasallikning alohida endemiya o'choqlarini Yaqin Sharq mamlakatlari, shuningdek, Osiyoda topish mumkin: Quvayt, Qozog'iston, Eron va boshqalar, Ozarbayjonda, ayrim hududlarda yuqori darajada 64% ni tashkil qiladi. Mauda Ya. tomonidan olingan ma'lumotlarga ko'ra- Yaman Respublikasida flyuoroz barcha yosh toifasi aholisining 19,7%-83,6%ni qamrab oladi. Hindistonda bu patologiya 23%-30% bolalarda aniqlanadi. Meksikada bolalarda flyuoroz bilan kasallanish oshmoqda. Tish epidemiologik tekshiruv natijalariga kora, har xil darajadagi flyuoroz 12 yoshgacha bo'lgan barcha tekshirilgan bolalarda aniqlangan, 30% dan ortog'i qattiq tish to'qimalariga jiddiy shikast yetgan. Ftoridlangan tuzni iste'mol qilish, suvni nazoratsiz ftoridlash orqali kasallikning rivojlanish sur'ati sezilarli darajada oshgan.

Suvdagi ftor miqdori va flyuoroz kasalligiga chalinish (M.I.Groshikov (1985) bo'yicha.

<i>Ftor miqdori Mg/l</i>	<i>Flyuorozga chalinganlar foizi(%)</i>
0,8-1,0	10-12
1,0-1,5	20-30
1,5-2,5	30-40
2,5dan ortiq	50dan ko'p

Klinik manzarasi. Tishlarga tashqi ta'siri etuvchi ftor birikmalari flyuorozni chaqirmaydi. Erta bolalik chog'laridan boshlab, tarkibida ftor miqdori ko'p suvni iste'mol qilgan bolalarining ko'p hollarda doimiy va juda kamdan kam sut tishlarida bo'rsiman dog'lar paydo bo'ladi. Tishlar emalining zararlangan yuzalarida yaltiroqlik va tiniqlik yo'qoladi, bunday joylarda nursiz bo'lib qoladi va go'yoki "jonsiz" oqish tusga kiradi. Bu holda surunkali ftorli endogen umumiy zaharlanish(Intoxicatio) natijasida emalning nur sindirishining o'ziga xosligi bilan tushuntiriladi. Flyuorozning klinikada ko'rinishi suvdagi ftor miqdoriga qarab, emal yuzalarida dog' shaklidagi o'zgarishlardan tortib, to emalda turli kementiklar paydo bo'lishigacha bo'lgan patologik holatlarda bo'lishi mumkin. Flyuorozning endemik zonada yashovchi yoki yuqorida keltirilganidek, endemik zona o'chog'iga 3-4 yoshligida ko'chib kelib, yashab turgan bolalarning asosan doimiy tishlarida uchraydi. Agar ftorning konsentratsiyasi ichimlik suvda biroz oshgan bo'lsa, flyuoroz faqat oldingi tishlarda, agarda juda ko'p miqdorda oshgan bo'lsa, unda barcha tishlarida kuzatilishi mumkin. Kasallikning yengil ingichka chiziqli (shtrixli) shaklida emalning vestibular yuzasida bir-biriga qo'shilishga moyil bo'lgan kichkina bo'r ko'rinishidagi yo'l-yo'l chiziqliklar paydo bo'ladi. Dog'li shaklida tojning ba'zi joylarida bo'r ko'rinishidagi dog'lar va och-sariq pigmentatsiya hosil bo'ladi. Emalning yuzaki hatto dog'lari bor joylari ham silliq, yaltiroq bo'lib ko'rinadi.

Bo'rsimon- nuqtali shaklida, bo'rsimon rangdagi tojning ayrim joylarida och-sariq

va to‘q-jigarrang pigmentatsiya yuzaga keladi. Nuqtali, ziraxolli ko‘rinishidagi kemtiklar zararlangan tish tojining lab va lunj yuzalarida emalning yuza qavatida paydo bo‘lishi mumkin. Fluorozning eroziv va deformatsiyalanuvchi shakllari organizmning og‘ir darajada intoksikatsiyalanganligini ko‘rsatadi. Eroziyalar emalning chegaralangan kemtiklari yoki tish tojini yoppasiga qoplab olgan chiziqlar ko‘rinishida namoyon bo‘lishi mumkin. Ayrim dog‘lar keskin qora-jigarrang yoki hatto qora rangda pigmentlanadi. Kasallikning og‘ir shakllarida ko‘plab tishlar zarar ko‘rib, o‘zining tabiiy tuzilishi va shaklini yo‘qotishi kuzatiladi. Kesuvchi qirralar va chaynov yuzalarida emal va dentin siyqalanib, deyarli yo‘qolib ketishi klinik jihatdan yaqqol ko‘rinadi. Ftor miqdori 1,0 mg/l bo‘lgan ichimlik suv iste‘mol qilinganda ham emalda fluorozli dog‘lar paydo bo‘lishi mumkin. Ba‘zi bolalarda esa ayni shu konsentratsiyadagi ftor dog‘larning kattaroq bo‘lishiga va emalning sezilarli qismini egallashiga sabab bo‘ladi. Agar ftor konsentratsiyasi 1,5–2 mg/l ni tashkil etsa, zarar ko‘rgan tish yuzalarida to‘lqinsimon yoki nuqtali eroziyalar shakllanishi kuzatiladi.

Kurak tishlarining kesuvchi yuzalariga yaqin joylashgan qora-jigarrang tusdagi dog‘lar “kuygan” tojlar manzarasini vujudga keltiradi. Ftorning yanada yuqori konsentratsiyasida nuqtali eroziyalar o‘zaro “qo‘shiladilar” va pigmentli va bo‘rga o‘xshash dog‘lar bilan birga emalga yeyilgan “ola-bula” ko‘rinish beradi.

Fluorozning aniq rivojlanish bosqichida bir bemorning turli guruh tishlarida kasallikning har xil darajada kechishi xarakterli hisoblanadi. Tish emalining fluorozli o‘zgarishlari uning minerallashish davrlariga mos kelib, aynan shu jarayonga bog‘liq holda shakllanadi. Kasallik og‘ir kechgan holatlarda, emal yuzasida (shu jumladan, til tomonida ham) turli to‘lqinsimon chiziqlar, chuqurchalar, eroziyalar va kemtiklar paydo bo‘lishi mumkin. Bu jarayon tish qattiq to‘qimalarining shaklini o‘zgartirib, emal yuzasini g‘adir-budir, yemirilgan va “ari ini”simon qo‘pol tuzilishga ega bo‘lishiga olib keladi. Bunday holatlarda emal yuzasidagi ko‘p sonli dog‘lar bir-biriga qo‘shilib ketishi ham kuzatiladi. Shunga qaramay, fluoroz oqibatida tish tolalarida yuzaga kelgan destruktiv o‘zgarishlar va kemtiklar bo‘lishiga qaramasdan, bemorlar odatda harorat yoki kimyoviy ta’sirlardan kelib chiqadigan og‘riqlarga shikoyat qilmaydilar. Chunki bunday ta’sirlar odatda og‘riq chaqirmaydi.

Klinik kuzatuvlarga ko‘ra, ichimlik suvdagi ftor miqdorining 1 mg/l bo‘lishi maqsadga muvofiq deb topilgan. Bunday holatda ham ba‘zan fluoroz rivojlanishi mumkin, biroq u yengil shaklda kechadi. Shu bilan birga, bu sharoitda karies kasalligining rivojlanish sur‘ati ham pasayadi. Minerallashish jarayoni yakunlangan tish emalida, hatto ichimlik suvdagi ftor miqdori 6 mg/l gacha yetganda ham fluoroz rivojlanmaydi. Bundan tashqari, ovqatlanish xususiyatlari, sut va sut mahsulotlarini iste‘mol qilish darajasi, iqlim va turmush sharoitlari, kattalar uchun ish-mehnat sharoitlari hamda ekologik muhit kabi tabiiy va ijtimoiy omillar bolalarning rivojlanayotgan tish emaliga ortiqcha ftor miqdorining salbiy ta’sirini ma’lum darajada neytrallashtiradi.

Profilaktika. Fluoroz kasalligining oldini olish uchun avvalo aholi yashaydigan hududlardagi ichimlik suvi tarkibidagi ftor miqdorini aniqlash lozim. Chunki ushbu kasallikning profilaktikasi aynan suvdagi ftor miqdori me'yordan (0,8-1,2 mg/l) oshib, ayniqsa 2 mg/l dan yuqori bo'lgan hududlarda amalga oshiriladi. Ftor oshqozon-ichak trakti orqali qonga so'rilib, ameloblastlarga ta'sir ko'rsatadi va natijada emalning shakllanishi hamda minerallashuvi buziladi. Shu bois, fluorozning oldini olish choralari ayniqsa tishlarning rivojlanish va minerallashish bosqichlarida faol olib borilishi lozim.

Fluorozning profilaktikasi kompleks tarzda ikki yo'nalishda amalga oshiriladi: 1) ichimlik suvining tarkibidagi ftor miqdorini me'yorida ushlab turishga yo'naltirilgan davlat va jamoatchilik tomonidan olib boriladigan tadbirlar; 2) har bir inson tomonidan shaxsiy-individual tarzda ko'riladigan ehtiyot choralar. Fluorozning oldini olish bo'yicha davlat va jamoatchilik tomonidan amalga oshiriladigan chora-tadbirlar quyidagilardan iborat: 1. Tarkibida ftor miqdori yuqori bo'lgan ichimlik suvi manbalarini (suv havzalari, daryolar, kanallar) ftor miqdori kam bo'lgan manbalar bilan almashtirish. 2. Ftor miqdori yuqori va past bo'lgan suv manbalarini aralashtirib, suv tarkibidagi ftor konsentratsiyasini me'yoriy darajaga yetkazish. 3. Tarkibida ftor ortiqcha bo'lgan suv havzalarida maxsus suv tozalash inshootlarini qurish yoki ichimlik suvini me'yorga keltirish uchun ftoni kamaytiruvchi filtrlar va ftoratorlar o'rnatish.

Har bir inson tomonidan individual ravishda amalga oshiriladigan fluorozning oldini olish choralari turlicha bo'lib, ularni bola tug'ilishidan boshlab, doimiy oziq tishlarining minerallashish jarayoni yakunlangunga qadar olib borish maqsadga muvofiqdir.

Ta'kidlash joizki, Markaziy Osiyo mamlakatlari, jumladan, go'zal O'zbekistoni-mizning iqlim sharoitida yil davomida ko'plab foydali mahsulotlar yetishtiriladi. Ular, ayniqsa, bolalar organizmi uchun juda muhim bo'lib, hatto fluorozning endemik hududlarida yashovchi bolalarda tishlarning minerallashishi to'liq yakunlanmagan yoki emal to'qimalari zaiflashgan hollarda ham zarur minerallar va mikroelementlar bilan ta'minlash orqali tishlarning mustahkamligini oshiradi. Bu esa fluoroz jarayonining jadaligini kamaytirishga yordam beradi. Turli xil ko'katlar, sabzavotlar, mevalar va poliz ekinlari kabi tabiiy mahsulotlarni maqsadli ravishda muntazam iste'mol qilish sun'iy vitaminlarga bo'lgan ehtiyojni sezilarli darajada kamaytiradi, ayniqsa bolalar uchun.

Davolash. Fluoroz bilan og'rigan bemorlarni davolash kasallikning shakli va klinik kechishiga qarab amalga oshiriladi. Davolash, birinchi navbatda, tish to'qimalarini remineralizatsiya qilishga, ikkinchidan esa tishning anatomik shakli va tabiiy rangini tiklashga yo'naltirilgan. Bunda umumiy va mahalliy davolash usullari qo'llanadi.

Umumiy davolash usullari quyidagilarni o'z ichiga oladi: bemorlarning ftor miqdori yuqori bo'lgan ichimlik suvini iste'mol qilishini cheklash yoki imkon qadar bunday holatlarning oldini olish, ularga mos keladigan parhezli ovqat mahsulotlarini iste'mol

qilishni tavsiya etish hamda dorilar, ayniqsa kalsiy, fosfor va vitaminlar qabul qilishni tavsiya qilish.

Mahalliy davolash usullari fluorozning klinik shakliga qarab tanlanadi. Asosan, bu usullar tishlardagi rang o'zgarishlarini bartaraf etish va ularni oqartirishga yo'naltirilgan. Buning uchun kislotalar, vodorod peroksidi va uning ta'sirini neytrallash uchun ishqorli preparatlar qo'llaniladi.

Fluorozda tishlarda paydo bo'ladigan dog'larni bartaraf etish usullaridan birini I. Novik (1951) taklif qilgan. U 5 qism vodorod peroksidi va 1 qism efirdan iborat aralashmani qo'llashni tavsiya etgan. Ushbu aralashma fluorozdan zararlangan tish yuzalariga paxta tamponi yoki doka pilikchalari yordamida qo'llanadi. Oqartirish jarayonini tezlashtirish va kuchaytirish maqsadida, aralashma surtilgan tish yuzalariga bir necha daqiqa davomida kvarts lampasi nurlari bilan ta'sir ko'rsatiladi. Davolash seansi 30 daqiqa davom etib, natijaga qarab 3 martadan 15 martagacha yoki undan ortiq muolajalar talab qilinishi mumkin.

G.D. Ovruskiy (1962), Murrin va Barkmeir (1982)lar I. Novik usulida fluorozli tishlardagi dog'larni yo'qotish va tishlarni oqartirishdan oldin emalning yuza qatlamini nozik karborund toshlari yoki plombani silliqlash uchun mo'ljallangan qog'oz diskardan foydalangan holda bosqichma-bosqich silliqlashni taklif etishgan. G.D. Ovruskiyning fikricha, oqartirish jarayonini pergidrol bilan ishlov berilgan tish yuzalariga 75% konsentratsiyali ftorli pastani surtish, uni singdirish va silliqlash vositalari yordamida qayta ishlash bilan yakunlash lozim. Fluorozli pigmentlarga ega tishlarning emal yuzalariga ushbu mexanik va kimyoviy ishlov berish har 5-7 kunda bir marta, jami 3-6 marta o'tkazilsa, tish qattiq to'qimalarining remineralizatsiyasi ta'minlanadi. Demak, mualliflar fluorozli tishlarni oqartirishda mexanik va kimyoviy usullardan foydalanishgan.

“Tishlarning pigmentatsiyasi va karashlar” nomli sarlavha ostida bayon etilgan, rang o'zgarishi kuzatilgan tishlarni oqartirish usullari hamda Abu Ali ibn Sino (980-1037) ning “Tib qonunlari” asarida “Tishlar rangini o'zgartirish” bandida keltirilgan dorivor vositalar, ehtimol, fluoroz natijasida rang o'zgargan tishlarni oqartirishda foydali bo'lishi mumkin. Shunday qilib, tizimli tarqalgan fluorozning ingichka chiziqli (shtrixli), dog'li (ola-chipor), bo'rsimon-nuqtali (ziraxolli) shakllarini gipoplaziyaning dog'li shakliga kiritib, remineralizatsiya terapiyasi yordamida 6 oydan 2 yilgacha davolash talab etiladi.

Ta'kidlash joizki, fluorozni gipoplaziyaga nisbatan davolash natijalari tezroq namoyon bo'ladi. Fluorozning og'ir va murakkab shakllari (eroziyal va destruktiv shakllari)da kamchiliklarni plombalashdan avval, bir oy davomida remineralizatsiyalovchi davolash kursini o'tkazish tavsiya etiladi (Kuryakina N.V., 2001). Kamtiklarni plombalashda kompozit plomba materiallari qo'llanadi. Bolalarda esa bunday kamchiliklar-

ni plombalash uchun stekloionomerli sementlardan foydalaniladi, keyinchalik ularni qisman kompozit plombalar bilan almashtirish mumkin (Artelt X.M. va hammualliflar, 1996). Ba'zan bunday davolangan tishlar ortopedik davolash usullari yordamida tayyorlangan sun'iy kosmetik koronkalar bilan qoplanadi. Fluorozning eng og'ir shakllarida, ya'ni tish toji tuzilishining sezilarli darajada buzilishi bilan kechadigan holatlarda, avval tish pulpasini olib tashlash, kanallarga shtiftlar o'rnatish va so'ng plomba qo'yish yoki ortopedik davolash usullari yordamida tishlarni sun'iy kosmetik koronkalar bilan qoplash zarur bo'ladi. Fluoroz bilan og'rigan bemorlarni kompleks (umumiy va mahalliy) davolash natijalari, asosan, kasallikning klinik ko'rinishlariga qarab baholanadi.

Xulosa.

Tish flyuorozi – bu ftorning ortiqcha miqdorda organizmga tushishi natijasida tish emalining mineral tarkibi va tuzilishida yuzaga keladigan patologik o'zgarishlar bilan tavsiflanadigan kasallikdir. Uning asosiy sababi ichimlik suvidagi ftor miqdorining me'yoridan ortiq bo'lishi va uzoq muddat davomida ftorli mahsulotlardan haddan tashqari foydalanishdir.

Klinik jihatdan kasallik yengil, o'rtacha va og'ir shakllarda namoyon bo'lib, emalda oq yoki sarg'ish dog'larning paydo bo'lishidan tortib, emal mo'rtlashishi va yemirilishigacha bo'lgan turli darajadagi buzilishlar kuzatiladi. Fluorozning og'ir shakllari tishning estetik ko'rinishini buzish bilan birga, uning funksional holatiga ham salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Profilaktika choralari ichimlik suvidagi ftor miqdorini nazorat qilish, ftorli mahsulotlardan ehtiyotkorlik bilan foydalanish va tish emalini mustahkamlovchi muolajalarni o'z ichiga oladi. Davolash usullari esa kasallikning darajasiga bog'liq holda farqlanadi: yengil shakllarda remineralizatsiya muolajalari, o'rtacha va og'ir holatlarda esa mikroabraziya, tishlarni oqartirish yoki ortopedik protezlash tavsiya etiladi.

Shunday qilib, tish flyuorozining oldini olish va uni samarali davolash uchun ichimlik suvi sifatini nazorat qilish, muntazam stomatologik tekshiruvlardan o'tish va kasallikning dastlabki bosqichlarida profilaktik choralarga rioya qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. J.A.Rizayev, O.K.Muslimov, E.A.Rizayev "Tishlarning nokarioz kasalliklari" Samarqand-2022, 90-123c.
2. N.N.Xolmo'ninov "Tish flyuorozini davolash va oldini olish usullarini takomillashtirish" Samarqand-2023

3. S.S.Murtazayev, M.S.Murtazayev “Bolalar fakultet terapevtik stomatologiyasi” Toshkent-2014, 36-38c.
4. I.X.Xalilova, B.O.Xudanova, Sh.B.Daminova, M.S.Muxamedova “Bolalar terapevtik stomatologiyasi” Toshkent-2017, 117c.
5. <https://e-library.namdu.uz/>

MODERN WAYS OF THE MONITORING THE ASPECTS OF THE ENSURING THE HUMAN ECONOMIC SECURITY

Abulkasimov Murod Xasanovich

PhD, Associate Professor of the Department of Regional Economy of the Tashkent State University of Economics, Tashkent, Uzbekistan

Abstract: *The article deals with the issues of ensuring the economic security of a person, including methods and new approaches that can be used to study the level of economic security of a person. Also, there is information about the shortcomings of the existing measures to ensure the economic security of the person. Also, with the help of the developed service, the results of the Republic of Uzbekistan were analyzed on the basis of comparative tables with the results of the CIS countries and developed countries.*

Keywords: poverty, the human developing index, economic threats, methods for evaluating the provision of human economic security, and the human economic security index.

Introduction.

In a market economy, every person hopes for a better future, a better life, a higher standard of living and a safer life. The protection of a person's needs from those factors that negatively affect his interests and impede their realization is called personal security. Human security includes protection from attacks on his life, health, freedom, personal integrity, honor and dignity, as well as property.

One of the most important components of human security is his economic security. Human economic security is a state of security of such human rights and opportunities as free labor, entrepreneurial activity, property rights, consumption of necessary goods (services), quality education and healthcare, strong social protection from the state.

In recent years, the issue of human economic security has been widely studied by scientists and various international organizations. However, there is no separate aggregate indicator that reflects a person's provision with necessary goods (services) and other benefits for a normal life. Therefore, in studying human economic security, it is necessary to use a special indicator to study human security in the country.

The author has developed a special index for the study of human economic security. To understand the methodology for calculating the index, let's consider it using the example of the Republic of Uzbekistan.

Methodology

The Human Economic Security Index is based on the Human Development Index (HDI), which is calculated by the United Nations Development Programme.

The Human Economic Security Index HESI is calculated based on seven indicators, where three indicators taken from HDI calculating methodology :

1. Life expectancy (Life Expectancy Index (LEI));
2. Level of education development (Education Index (EI));
3. Gross national income per capita (GNI Index (II));

Other four indicators are added to assess the problem of human economic index which includes more threats and factors which will lead people to poverty and lack of perspectives:

4. Average nominal wage (Average wage index (AWI));
5. Provision of housing for the population (Housing provision index (HPI));
6. Savings (Savings index (SI));
7. Crime rate (Crime index (CI)).

Each of the seven indicators is calculated as an index between the numbers 0 and 1 where 1 is highest and 0 is the worst performance subsequently. The first three indicators are calculated based on the methodology and data used to calculate the Human Development Index.

Life expectancy is calculated using the following formula according the methodology of UNDP:

$$LEI = \frac{I(\text{Life expectancy in the country}) - 20}{85 - 20}$$

Life expectancy in the Republic of Uzbekistan is equal to 74 years according the accepted data. Let's calculate the above index for examples of the Republic:

$$LEI = \frac{74 - 20}{85 - 20} = 0,83$$

According to calculations, the life expectancy index in Uzbekistan was 0,83.

The indicator of the level of education development in a country is determined by the following formula:

$$EI = \underline{MYSI} + \underline{EYSI}$$

MYSI – index of the average period of study in the education system, which is calculated using the following formula:

$$\text{MYSI} = \frac{\text{MYS}}{15}$$

EYSI – index of the expected average period of study in the education system, calculated using the following formula:

$$\text{EYSI} = \frac{\text{EYS}}{18}$$

Where:

MYS – average period of study in the education system (in years).

EYS is the expected average period of study in the education system (in years).

The average period of education of the population in Uzbekistan calculated as 11.9 years, the expected average period of study in the education system is 12 years. Using these data, we will calculate the educational development level index.

$$\text{MYSI} = \frac{11,9}{15} = 0,79$$

And subsequently EYSI is equal to 0,67

$$\text{EYSI} = \frac{12}{18} = 0,67$$

Using the indicators we can find out the education index:

$$\text{EI} = \frac{\text{MYSI}}{2} + \frac{\text{EYSI}}{2} = \frac{0,79+0,67}{2} = 0,73$$

The educational development level index in the country is equal to 0,73.

3. The gross national income (GNI) per capita is determined in US dollars at

purchasing power parity:

$$II = \frac{\ln(\text{GNI per capita}) - \ln(100)}{\ln(75000) - \ln(100)}$$

The highest value for GNI per capita is US\$75,000 and the lowest is US\$100. According to the UN, Uzbekistan's GNI per capita at purchasing power parity assessed as \$8056.

GDP (purchasing power parity)

$$II = \frac{\ln(6470) - \ln(100)}{\ln(75000) - \ln(100)} = 0,67$$

4. The fourth indicator in our methodology weighted average nominal wage is calculated in US dollars at purchasing power parity. To calculate the index based on the average nominal wage, we need to determine the lower and upper limits. To determine the lower limit, the poverty threshold used by the World Bank for middle income countries (in our case Uzbekistan is the middle income country), US \$3.65 per day, can be used. If we take into account that a person works on average 25 days a month, the lower limit of the nominal wage will be \$91.3 per month. We determine as the the average wage upper level the data of the United States for several reasons:

1. The United States has achieved great results in ensuring individual economic security in case of ensuring the income. It ranks ninth in the world in terms of average monthly salary and ranks high in other parameters reflecting the standard of living of the population;

2. Accrued nominal wages are calculated in US dollars using wage purchase parity.

Therefore, the average monthly wage in the United States, approximately \$5000, is used as the upper limit for calculating the index.

Let's look at the indicators of average monthly nominal wages using the example of the Republic of Uzbekistan. The average nominal salary is assessed as 5,5 mln. of uzbek sums. The average annual exchange rate of the US dollar against the Uzbek soum evaluated as 12 500 soums per one US dollar. As the result we can determine the average nominal wage in the country 440 (5 500 000 / 12 500) US dollars. To calculate the nominal salary based on purchasing power, we need to calculate a special index that determines the difference in price levels in various countries of the world such as the differences in Uzbekistan and USA. To determine a special index, we calculate the difference between Uzbekistan's GDP indicators by nominal value and GDP by purchasing power according to the International Monetary Fund datas:

$$\text{Purchasing power index} = 428 \div 90 = 4,8$$

We multiply the calculated index by the average monthly salary in the country:

$$4,8 * 440 = 2112 \text{ dollars USA}$$

In Uzbekistan, the average monthly salary based on purchasing power is \$1670. The lower limit of the average salary is also calculated using purchasing power parity:

$$91,3 * 4,8 = 438,2 \text{ dollars USA}$$

Using threshold indicators, we can calculate the average nominal wage index using the formula:

$$= \frac{\text{average monthly salary} - \text{minimum value}}{\text{maximum value} - \text{minimum value}} = \frac{2112 - 438,2}{5000 - 438,2} = 0,37$$

Where:

AWI (average wage index) – average nominal wage index, using the formula, we determine the average nominal salary index, which is equal to 0,37.

5. Another essential indicator for evaluating the human economic security index is the population housing supply index which is calculated by determining the arithmetic average of two indicators. According to the first indicator, we calculate the area of housing stock per person. In the second indicator we define housing units per household:

$$HPI = \frac{HPPP + HPPH}{2}$$

Where:

HPI (housing provision index) – housing provision index

HPPP (housing provision per person) – housing stock per person (in sq.m.)

HPPH (housing provision per household) – the amount of housing per household.

Where:

$$HPPP = \frac{\text{housing stock per person in sq.m.}}{10}$$

$$HPPH = \frac{\text{volume of housing stock} * 1000}{\text{population}} : \frac{1000}{\text{average household size}}$$

When determining the first indicator, we determine the housing area in sq.m. per person. Here, we will set 30 sq.m. as the maximum indicator (in accordance with UN criteria) and the lower indicator – 10 sq.m. (based on regulatory legal acts). According to the Uzbekistan Statistics Agency, there are 20 square meters per person. meters of living space:

$$HPPP = \frac{20 - 10}{30 - 10} = 0,5$$

When calculating the second indicator, you need to pay attention to the average number of people in one household (5 people in Uzbekistan):

$$HPPH = \frac{6774552 * 1000}{37\,256\,000} : \frac{1000}{5} = 0,95$$

We calculate the housing supply index for the population:

$$HPI = \frac{0,5 + 0,95}{2} = 0,73$$

Therefore, the housing affordability index in the country is 0,73.

6. The population savings index is calculated using two indicators:

1. Per capita income for one month, thousand soums
2. Expenses per capita for one month, thousand soums;

According to the Uzbekistan statistics agency total per capita expenses per month amounted to 1400 thousand soums, total income 1500 thousand soums. Let us determine the ratio of total expenses and income per capita (in%):

